MAMATKULOVA ZILOLA REJABALIYEVNA

SAVODXONLIK SIRLARI



FARG'ONA 2015

CamScanner yordamida skanerlangan



Ushbu uslubiy ko'rsatma FarDU akademik litseyining 30. 12 2024 dagi kengashi majlisida ko'rib chiqildi va foydalanish uchun tavsiya etildi.

Ona tili fanidan tayyorlangan uslubiy ko'rsatmada orfografiya bo'limi va uning tarkibiy qismi ochib berilgan. Ko'rsatmada berilgan nazariy ma'lumotlar misollar, tahlillar va testlar yordamida mustahkamlangan. Ushbu uslubiy ko'rsatma nazariy, amaliy mashg'ulotlarda va mustaqil ishlarning bajarishda, milliy setifikat uchun tayyorlanishda o'quvchilar bilimini kengaytirish hamda chuqurlashtirishda zaruriy ko'rsatma bo'lib xizmat qila oladi.

Ushbu uslubiy qo'llanmadan akademik litseylarning ta'lim jarayonida amaliy va nazariy darslarda foydalanish mumkin.

Taqrizchi: S.Qurbonova, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mamatkulova Zilola Rejabaliyevnaning uslubiy ko'rsatmasi ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasining 2025-yil "23" 12 dagi 5-sonli yig'ilishida muhokama etildi va ma'qullandi.

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘ZBEK TILINING YANGI IMLO QOIDALARI

Yozuv har bir xalqning ma’naviy boyligi, yuksak madaniyatga erishganligining o‘ziga xos ko‘rinishi sanaladi. So‘zlarning yozilishidagi barqarorlik, qat’iylik millatni yakdillikka, ma’naviy jipslikka yetaklaydi. Shu ma’noda har bir xalq o‘z tilining imlo qoidalarini ishlab chiqadi, uni amaliyotga tatbiq etadi. Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarimiz 1956-yilda tasdiqlangan edi. Davr o‘tishi bilan u eskirdi, amaliy ehtiyojlarimizga javob bermay qoldi. Shu bois, 80-yillarning boshlaridayoq uni yangilashga urinishlar boshlandi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, mustaqillikning qo‘lga kiritilishi yangi imlo qoidalarini ishlab chiqish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995- yilning 24-avgustida 339-sonli «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qaror qabul qildi. U 82 banddan iborat bo‘lib, quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: 1. Harflar imlosi:

a) unlilar imlosi (1—7-bandlar);

b) undoshlar imlosi (8—32-bandlar).

2. Asos va qo‘shimchalar imlosi (33—37-bandlar).
3. Qo‘shib yozish (38–50-bandlar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51—56-bandlar).
5. Ajratib yozish (57—56-bandlar).
6. Bosh harflar imlosi (66—74-bandlar).
7. Ko‘chirish qoidalari (75—82-bandlar).

UNLILAR IMLOSI

Yangi imlo qoidalarida unli harflarning yozilishiga keng o‘rin ajratilgan.

A a harfi savol, zamon, bahor so‘zlarida «o» kabi aytilsa ham har vaqt «a» yoziladi.

O o harfi boshqa tillardan kirgan quyidagi so‘zlarda «a» singari talaffuz etiladi, biroq hamisha «o» yoziladi: kollej, monitoring, dekoratsiya, omonim, okulist va h.k. Shuningdek, o ba’zan o‘ kabi aytilishi ham mumkin, lekin baribir «o» yozilaveradi: tonna, noyabr, boks, tort va h.k.

CamScanner yordamida skanerlangan

Ii harfi bilan, bilim, til, tilak, har xil, qism kabi so‘zlarda qisqa aytiladi va «i» yoziladi, badiiy, ommaviy, Lutfiy singari so‘zlarda «i» cho‘ziq aytiladi, lekin doimo «iy» yoziladi.

Uu harfi yutuq, butun, tovuq, sovuq, sovun kabi so‘zlarda «i»ga monand talaffuz etilsa-da, qoidaga binoan «u» yoziladi.

O‘o‘ harfi o‘zbek, o ‘lka, o‘simlik kabi so‘zlarda old qator, o‘rta-keng, lablangan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi.

E e harfi e’lon, ehtirom, fe’l, bermoq, meros, mone, tole, kofe kabi so‘zlarda old qator, o‘rta-keng, lablanmagan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi: «e», «ё», «ю», «я» harflari yangi alifboda quyidagicha yoziladi: e: yetti, yetmish, yetim; yo: yolg‘iz, yomon, yong‘oq; yu: yulduz, yumshoq, yumuq. ya: yakka, yangi, yaroqsiz. Milliard, material, million, radio, ukrain, said, doim, shoir, teatr, okean singari so‘zlar talaffuzida unlilar orasida «y» undoshi qo‘shib aytilsa-da, yozuvda tushib qoladi. Taassurot, taalluqli, taajjub, matbaa, saodat, maorif, muomala, inshoot kabi so‘zlar o‘rtasidagi unlilar yozuvda saqlanadi.

UNDOSHLAR IMLOSI

1. «B» tovushi borib, javob, hisob, bob, xitob kabi so‘zlarda «p», qibla, tobla so‘zlarida «v» tarzida aytilsa ham «b» yoziladi.

2. Avtomat, avtobus, avtomobil kabi so‘zlarda «v» tovushi «f » tarzida tallafuz qilinsa-da, doimo «v» yoziladi.

3. Fursat, fizika, fabrika, fahm-farosat, fasl singari so‘zlarda «f » tovushi «p» kabi aytiladi, lekin asliga muvofiq ravishda har doim «f » yoziladi.

4. Obod, ozod, faryod, tadbir, tadqiqot kabi so‘zlarda «d» tovushi «t » tarzida aytilsa-da, har vaqt «d» yoziladi.

5. Iztirob, tuzsiz, bo‘zchi so‘zlarida «z» tovushi «s» kabi aytiladi, biroq hamisha asliga mos ravishda «z» yoziladi.

6. J j harfi jon, jahon, juma, g‘ijjak, vaj so‘zlarida til oldi, jarangli, portlovchi «j», jurnal, ajdar, garaj, tiraj so‘zlarida esa til oldi, jarangli, sirg‘aluvchi «dj» undosh tovushini ifodalash uchun yoziladi.

7. Sh sh harfi shahar, shimol, shoshmoq, osh, bosh kabi so‘zlarda til oldi, jarangsiz, sirg‘aluvchi tovushni ifodalash uchun yoziladi. Sh harfi ikki tovushni ifodalasa, oraga tutuq belgisi qo‘yiladi: Is’hoq, as’hob kabi.

8. Ch ch harfi chumoli, choy, achchiq, soch kabi so‘zlarda til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh tovushni ifodalash uchun yoziladi.

9. R r harfi rahmat, rahm, diyor; L l harfi lola, bol, olmoq; N n harfi non, ona, osmon; G g harfi gul, ega, eg; Kk harfi kam, ikki, tok; Y y harfi yetti, yuz, dunyo, toy; Ng ng harfi ko‘ngil, tong, ong; Q q harfi qizil, oq,

CamScanner yordamida skanerlangan

aql; G‘ g‘ harfi g‘oz, og‘a, tog‘; X x harfi xalq, axborot, baxt; H h harfi hamma, hosil, ehson, isloh kabi so‘zlardagi muayyan tovushlarni ifodalash uchun yoziladi.

10. Farzand, band, poyezd so‘zlaridagi «d» undoshi, go‘sht, past, artist so‘zlaridagi, «t» undoshi talaffuzda tushib qolsa ham yozuvda doimo ifodalanadi.

11. Xuddi shuningdek, metall, kilovatt, kongress kabi so‘zlar oxiridagi qo‘sh undoshlardan biri talaffuzda tushirilib qoldirilsa ham yozuvda hamisha ifodalanadi.

12. Tutuq belgisi a’lo, ta’lim, e’lon, she’r, fe’l kabi so‘zlarda unlidan keyin kelib, uning cho‘ziqroq aytilishini ta’minlaydi.

13. Mo‘jiza, mo‘tadil, mo‘tabar kabi so‘zlarda o‘ unlisi cho‘ziqroq aytiladi, lekin tutuq belgisi qo‘yilmaydi.

14. San’at, in’om, mas’ul kabi so‘zlarda unlidan oldin qo‘yilib, uning undosh tovushdan ajratib aytilishini ta’minlaydi.

ASOS VA QO‘SHIMCHALAR IMLOSI

1. a unlisi bilan tugagan fe’llarga -v, -q, -qi qo‘shimchalari qo‘shilganda a unlisi o aytiladi va shunday yoziladi: sayla — saylov, qayna — qaynoq, sayra — sayroqi. Shuningdek, o‘qi — o‘quvchi, sovi — sovuq, to‘qi — to‘quvchi so‘zlarida i unlisi u ga aylanishi mumkin.

2. K k harfi bilan tugagan so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilsa, ular g va g‘ ga aylanadi: yurak — yuragi, bilak — bilagim, tilak — tilagim; buloq — bulog‘im, quloq — qulog‘ing, qishloq — qishlog‘i kabi. Erki, ishtiroki, huquqi, ravnaqi singari so‘zlarda bunday holat kuzatilmaydi.

3. Singil, o‘rin, ko‘ngil, og‘il, shahar kabi sozlarga egalik qo‘shimchasi, qayir, ayir so‘zlariga nisbat yasovchi qo‘shimcha, ikki, olti, yetti so‘zlariga jamlovchi son hosil qiluvchi qo‘shimcha qo‘shilsa, asosda tovush tushishi hodisasi ro‘y beradi.

4. U, shu, o‘sha kabi olmoshlarga -da, -dan, -day, -dagi, -dosh, -cha qo‘shimchalari qo‘shilsa, bitta n orttiriladi, aksincha, men, sen olmoshlariga -ni va -ning qo‘shimchalari qo‘shilsa, bitta n tushirib qoldiriladi: bunda, shundan, o‘shancha, meni, sening kabi.

5. Parvo, obro‘, mavqe so‘zlariga egalik qo‘shimchalari (I va II shaxsda) qo‘shilsa, bitta y tovushi orttiriladi va shunday yoziladi: parvoyi, obro‘yim, mavqeyim kabi.

6. -boz, -bon qo‘shimchalari -vos, -von kabi aytilsa-da, doimo asl shakli bo‘yicha yoziladi: dorvoz, bog‘bon kabi.

CamScanner yordamida skanerlangan

7. -dir nisbat yasovchi qo‘shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli so‘zlarga qo‘shiladi: yondir, bordir, quvdir kabi (kel so‘zi bundan mustasno), qolgan o‘rinlarda -tir shaklida aytiladi va shunday yoziladi: ektir, quyultir, kestir kabi.

8. -ga, -gacha, -gach, -guncha, -gani, -gudek, -gan, -gin, -gina qo‘shimchalari uch xil aytiladi va yoziladi ertaga, ertagacha, borgach, borguncha, borgudek, borgan; eshikka, eshikkacha, chiqqach, chiqquncha, chiqqani kabi.

Eslatma: bargga, pedagogga, bug‘ga, sog‘ga, og‘gan, sig‘guncha so‘zlari bunga kirmaydi.

QO‘SHIB YOZISH

1. Xona, noma, poya, bop, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: oshxona, tabriknoma, bedapoya, hammabop, xushbichim, hamshahar, qo‘ymijoz, maymunsifat, kamhosil, umumdavlat, bug‘doyrang va h.k.

2. -r, -ar, -mas qo‘shimchasi bilan yasalgan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: o‘rinbosar, buzoqboqar, ertapishar, ishyoqmas kabi.

3. Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo‘shma otlar va sifatlar qo‘shib yoziladi: toshbaqa, oybolta, qo‘yko‘z, sherdil, otquloq singari.

4. Narsaning rangi, mazasi, nima uchun mo‘ljallanganligi kabi ma’nolarni bildiruvchi qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: ko‘ksulton, oqbosh, achchiqtosh, ko‘zoynak, suvilon kabi.

5. Ikkinchi qismi turdosh ot yoki obod so‘zi bilan yasalgan joy nomlari qo‘shib yoziladi: Oqtepa, Uchqo‘rg‘on, Davlatobod, Xo‘jaobod kabi, lekin Markaziy Osiyo, Ko‘hna Urganch, G‘arbiy Yevropa kabi joy nomlari ajratib yoziladi.

6. Ruscha, baynalmilal yoki tarjima qilingan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: telestudiya, fotoapparat, radioto‘lqin, etektrarra kabi.

7. Qisqartma so‘zlar har doim qo‘shib yoziladi: O‘zMU, ToshDPU.

AJRATIB YOZISH

1. Qo‘shma fe’l, shuningdek, ko‘makchi fe’lli qo‘shilmalar doimo ajratib yoziladi: kirib chiqdi, olib keldi, oshkor etdi, aytib qo‘ya qoldi, o‘qib chiqdi kabi.

2. Har, kech, bir, u, shu, o‘sha, hamma kabi so‘zlar o‘zi birikib kelgan so‘zdan ajratib yoziladi: har kim, hech narsa, bir zum, bu yerda, o‘sha joyda, hamma vaqt kabi.

CamScanner yordamida skanerlangan

3. Ko‘makchilar o‘zi bog‘langan so‘zdan ajratib yoziladi: Vatan uchun, siz bilan, shahar tomon. Eslatma: bilan va uchun ko‘makchilarining qisqargan la va chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: onam-la, sen-chun singari.

4. Sifatning orttirma darajasini yasovchi to‘q, och, tim, tang, jiqqa kabi so‘zlar ajratib yoziladi: tim qora, och ko‘k, to‘q sariq kabi.

5. Qo‘shma sonlar ajratib yoziladi: o‘n to‘qqiz, bir yuz yigirma besh, ikki ming birinchi va hokazo.

6. Yildan yilga, kundan kunga kabi ko‘rinishdagi birliklar ham ajratib yoziladi.

7. Nuqtayi nazar, tarjimayi hol, dardi bedavo kabi izofali birikmalar ham ajratib yoziladi.

BOSH HARFLAR IMLOSI

1. Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusi bosh harf bilan yoziladi: Sobirov Zokirjon Shukurjonovich, Abdurauf Fitrat kabi.

2. Mamlakatlar, shaharlar, qishloqlar, shaharchalar, daryo, dengiz, tog‘, tepa, adir nomlari ham bosh harf bilan yoziladi: Hindiston, Muborak, Urgut, Tentaksoy, Qo‘ng‘irtog‘, Qashqadaryo, Qora dengiz va hokazo.

3. Korxona, tashkilot, muassasa nomlari, adabiyot va san’at asarlari, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalarining nomlari bosh harf bilan yoziladi: «Malika» firmasi, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni, «O‘zqishloqxo‘jmashxolding» kompaniyasi, «Damas» avtomobili, Ko‘kdumaloq kompressor stansiyasi, Xorazm chanqovbosti ichimliklar zavodi, Qizilqum fosforit kombinati, «Amudaryo» jurnali, «Shaytanat» asari va hokazo.

4. Muhim tarixiy sanalar va bayramlar nomi bosh harf bilan yoziladi: Mustaqillik kuni, Navro‘z bayrami, Xotira kuni.

5. Oliy darajadagi davlat tashkilotlari, xalqaro birlashmalar nomi bosh harf bilan yoziladi: O‘zbekiston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Raisi, Yevropa Ittifoqi Kengashi kabi.

6. Mudofaa vazirligi, Davlat test markazi, «Umid» jamg‘armasi, Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi kabi tashkilotlar nomining birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi.

7. Oliy darajadagi unvonlar va mukofotlar nomi tarkibidagi so‘zlar har biri bosh harflar bilan yoziladi: «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni, «Oltin Yulduz» medali.

Shuningdek, «Sog‘lom avlod uchun» ordeni, «Shuhrat» medali singari mukofotlarning birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

8. Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi: Har qanday intilish, izlanish, ijod xalq manfaatlariga xizmat qilsagina u qadrlidir. (A. Oripov)

CHIZIQCHA BILAN YOZISH

1. Juft yoki takror so‘zlarning o‘rtasida chiziqcha ishlatiladi: ota-ona, orzu-umid, kecha-kunduz, qing‘irqiyshiq; tog‘-tog‘, sekin-tez kabi.

2. Juft so‘zlar orasida -u, -yu yuklamalari ishlatilsa, ular birinchi so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: erta-yu kech, osh-u non, oy-u quyosh, bola-yu chaqa kabi.

3. Qop-qora, yam-yashil, to‘ppa-to‘g‘ri kabi kuchaytirma sifatlar chiziqcha bilan yoziladi.

4. Uyma-uy, oyma-oy, dam-badam singari o‘rtasida -ma yoki -ba qo‘shimchalari kelgan so‘zlar chiziqcha bilan yoziladi.

5. -mi, -gina (-kina,-qina), -oq (-yoq) yuklamalaridan tashqari barcha affiks yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, biz-a, keldi-da, ukasi-ku kabi.

6. Tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilsa, chiziqcha ishlatiladi: 26-uy, 6-xona, 2001-yil, 8-mart.

Rim raqamlaridan so‘ng chiziqcha ishlatilmaydi: XXI asr, X bob.

KO‘CHIRISH QOIDALARI

1. Satrga sig‘may qolgan so‘zlar keyingi qatorga bo‘g‘in asosida ko‘chiriladi: tad-birkor, tadbir-kor, kollej, ma’-lum, ta’-lim kabi (tutuq belgisi birinchi bo‘g‘inda qoldiriladi).

2. So‘z boshida kelgan yolg‘iz unli hech vaqt yakka o‘zi qoldirilmaydi: e’-lon emas e’lon, u-ka emas uka, mudofa-a emas mudofaa singari.

3. So‘z tarkibida ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko‘chiriladi: dia-gramma, mono-grafi-ya, foto-grafiya kabi.

4. Sh, ch, ng harflar birikmasi doim birgalikda yoziladi: ko-shona, pu-chuq, de-ngiz kabi.

5. Qisqartma so‘zlar, yil, oy, raqam bilan yozilgan sonlar keyingi qatorga ko‘chirilmaydi: O‘zMU, ToshDPU, 2001, 19, XX kabi. 6. 10-«A» sinf 26-uy, 100 gr, 25 sm, 10 mm kabi ko‘rinishdagi birikmalar ham bir-biridan ajratilmaydi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Ma'lumki, BBA testlarida "T" harfiga oid so'zlar imlosidan savollar faol tarzda tushadi. Shu bois bu harf bilan boshlanadigan faol va chalg'ituvchi so'zlarni to'plashni lozim topdik. O'qib-o'rganib olsangiz, zarar qilmaysiz.

"T"

Taajjublanarli
Taalluqlilik
Taassuf
taassufki
taassuflanish
tabaq va taboq
tabdil
tabiat
tabiiy
taborak (din.)
tadbir
tadqiq
tadqiqiy
tadqiqot
tadrijiy
tafahhum
tafakkur
tafovut
tafsilot
tafsir
taftish
tagdor
tagli-joyli
tagmatn
tagmazmun
tagtizim
tag-tomir
tag-tub
tahajjud (din.)
tahdid
tahlika-xatar
tahorat
tahqiq (tekshirish)
tahqiqlamoq
tahqir
tahqir-haqorat
tahrirlash
tahsil
Tahsin
tajovuz
tajovuzkor
takallufli
taka-yovmut
takillatmoq
taktaklamoq
talaffuz
talent
talato'p
tala-to'polon
talmih (ad.)
talon-toroj
talotum
talx
tamaddun
tamaki
tamagir
tamali
tambalamoq
tamoyil
tamtaroq
tanbal
tambur
tanbur
tanburchi
tanish-bilish
tanosib
tanqid
tanti-mard
tantiqlik
taqdim
taqiqlamoq
taqlid
taqvodor
taraddud
taraqqiy
tardiaks (ad.)
tarelka
tarif
tarifikatsiya
tarifikatsiyachi
tariflamoq
tarixnavis
tarjimayi hol
tarji'band
tarovat
tarozi va tarozu

CamScanner yordamida skanerlangan

tarovih
tartibbuzar
tasarruf
tasavvur
tasnif
tatbiq
tatuirovka
tavallud
tavfiq
tavhid
tavoze
tavsif
tavsiya
taxlitda
taxtaband
taxtachoy
taym-aut
tazkirachilik
tazyiq
tag'ayyur
tashakkur
tashviqot
ta'b
ta'bdor
ta'bir
ta'biricha
ta'birlamoq
ta'dib
ta'jil
ta'kid
ta'kidlanmoq
ta'lif (mus.)
ta'lim
ta'limomuz
ta'm
ta'min
ta'minlagich
ta'minlamoq
ta'minot
ta'mirlamoq
ta'mli
ta'na
ta'na-dashnom
ta'naomuz
ta'na-taaddi
ta'na -tazarru
ta'qib
ta'qiblamoq
ta'rif
ta'rificha
ta'riflamoq
ta'riflash
ta'rif-tavsif
ta'rix (ad.)
ta'sir
ta'sis
ta'tił
ta'viya
ta'viz t
a'zim
ta'zir
ta'ziya
tegajaklik
tegdingmi
tegizmoq
tekkizmoq
tejog'li
tejog'lik
tekindan
tekin
tekintomoq
tekstolog
tektonik
telefon
teleshou
tembr
tepag'on
teploxod
teplovoz
terapevt
termilmoq
termometr
termos
tezlatkich
teshik-tuynuk
teshik-tuynukli
teng huquqli
tenghuquqlik
tengsherik
tengsheriklik
tim qora
tim qorong'i
tovuqmiya
toyg'anmoq
toychiq
toychoq
tog'abachcha
tog'avachcha
toshfonar
toshhovuz
translator
transformator
travma
trevoga
triller
trillion
trubka
tubdan
tugun
tuturiq
tuyoqsiz
tuyog'o't
tushkun
tushuncha
tvorog
to'bichoq
to'linoy

CamScanner yordamida skanerlangan

to‘polonchi
to‘rtburchak
to‘rt burchakli
to‘rtyuzinchi
to‘rt yuzli

“M”

Mabodo
madaniy
madaniyat
madaniy-maishiy
madaniy-maorif
madaniy-ma'rifiy
maddoh
madh
madhiyanavis
madh-sano
madhtalab
madh-tavsif
magnitofon
mahbus
mahobat
mahkum
mahliqo
mahliyo
mahmadona
mahrum
mahsichan
mahtal va ma’tal
mahtob
mohtob
mahzun
maishat
majruh
makaron
makiyaj
makiyon
makkajo‘xori
makroseysmik
maksimum
maktubot
malax
malikul-kalom
malikush-shuaro
malomat
malul
mal’un
manba
manfaat
manfaatparast
manovi
maorif
maqta (mum. ad.)
marhum
marotaba
marvarid
marshrut
masalnavis
masjid va machit
maskarad
masofaviy
massagetlar
masxaraboz
masshtab
mas'ud
mas'udlik
mas’ul
mas’uliyat
matbaa
matlab-muddao
mate va match
mavhum
mavqe
mavqeiy
mavsuf
mavsum
mavze
maxfiy
maxzan
mayl-xohish
maza
maza-bemaza
mazax
mazkur
mag'z
mashaqqat
mashaqqat
mashvarat
mash’al
mash’um
ma’bad
ma’bud
ma’buda
ma’dan ma’daniy
ma’danli
ma’dansoz
ma’dansozlik ma’had
ma’jun ma’lul ma’lum
ma’lumot
ma'mur
ma'nan
ma’naviy
ma’naviyat
ma’nili va ma'noli
ma’nisiz va ma'nosiz
ma'no va ma’ni
ma’qul
ma’raka
ma’ratmoq
ma’rash
ma’rifat
ma’rifiy-irfoniy
ma’ruza
ma’ruzachi
ma’sum
ma’suma

CamScanner yordamida skanerlangan

ma'tal va mahtal
ma'vo
ma'yub
ma'yus
ma'yusiya
ma'zirat
ma'zul
ma'zun (din, huq.)
ma'zur
ma'shuq
ma'shuqa
mehnatchan
mehr-shafqat
memorandum
memorial
memuar
meningit
menyu
metall
metallolom
meteorlar
mevaband
mevasiqqich
meva-rezavor
mexanik-ustoz
me'da
me'daosti
me'moriy
me'morlik
me'yorli
me'yornoma
me'yorsiz
mijja
mikrobas
militsioner
militsiya
milliard
million
milmillamoq
mina,
minalashgan (harb.)
mineral
miniatyura
miqyos
missioner
mixlamoq
miya
mishiqi
mohirlik
mohiyatan
mohliqo va mahliqo
monarx
mone
monelik
montyor
morojniy
morze
motorli
mototsikl
moyjuvoz
moshrang
muammo
muallaqlik
muallif
muarrix
muazzamlik
muazzin
mubohasa
muborakbod
mubtalo
mudhish
mudofaa
mufassal
mufti va muftiy
muguzli
muhaqqaq
muhaqqiq
muharram
muhoraba
muhosara
muhojir
mukofot
mullabachcha
mullavachcha
muloqot
multfilm
mulozimat
mumiyo
mumiyolamoq
munaqqash
munaqqid
munavvar
murabba
murabbo
murodbaxsh
murshid
musobaqa
mustazod (ad., mus.)
mustag'niy
mus'haf (yozuv, kitob)
mutaassir
mutakabbirlik
mutasaddi
mutavazziy
mutavoze
mute
mutelik
mutolaagoh
muvaffaqiyatli
muvaqqat
muvofiq
muyulish va muyush
muzikant
muzrang
mushkulot
mo'hmal
mo'r-malax

CamScanner yordamida skanerlangan

mo‘ysafid
mo‘ylab
mo‘ylov

“N”

nabira va nevara
nabotot
nabototshunos
nadomat
nafarmon
nafasma-nafas
nafasqisma
nafratomuz
nahang
nahs-falokat
namakob
namakxo'rak
namoyish
namoyishbop
namoyishgoh
namoyon
namozasr
namozgar
namozgoh
namozjuma va namozi juma
namozshom
namozshomatlas
namozshomgul
namozshomguldoshlar
namudor
namxush
namyutkich
namo'lchagich
namo'tkazgich
namo'tkazmaslik
naqd
naqarot
naqliyot
nard
nardbon
nargis
naridan beri
nariyoqqa
narkoz (tib.)
narxbildirgich
naryad
nasoro
nasta'liq
navmid (umidsiz)
navozish
navro'z
nazora va nazzora
nash’asizlik
nash'u
namo
na’l
na’lchilik
na’matak
na’ra
nerv
nevron va neyron
nechog'li
nechog'lik
ne'mat
nimaiki
nimkosa
nimko'k
nimpalto
nimpushti
nimqizil
nimqora
nimqorong'i
nimqorong'ilanish
nimqorong'ilik
nimrang (bot.)
nimro'z (mus.)
nimxushlik nimyumuq
nimzanjira (hun.)
nimo'tkir
nimg'isht
nimshohi
ninatutqich
ignatutqich
niyozmand
nisholda
nishxo'rd
noaktual
nobakor
nobud
nodirbachcha
nogoh va nogah
nohaqdan
nohaq
nol va nul
nomaqbul
nomaqbullik
nomard
noma’lum
noma’lumlik
noma'qul
nome'yoriy
nomuvofiq
nomzod
nontovoq
normativ
norg'ul
notavon
notamom
novator
novvot
noziktabiat
nozikta’b

CamScanner yordamida skanerlangan

nozikxayol no‘xatrang
nuqtayi
nazar

Imlo 1

1. Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar qatorini
belgilang.
A) hayot//sevar, hech//qachon
B) achchiq//tosh, har//vaqt
C) ola//qarg‘a, bir//tekis
D) mol//dunyo, dum//dumaloq

2. Qaysi javobda berilgan so‘zlar ajratib yozilishi
kerak?
A) to‘q //qizil, dardi//sar
B) hamma//yoq, taklif//noma
C) tim//qora, har//zamon
D) dev//sifat, sovuq//mijoz

3. Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni
toping.
A) maxtamoq, minnatdor
B) tassavur, inshoat
C)dorboz, ravnaq
D) favvora, aloxida

4. Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?
A) Ustoz abadiy tiriklikka erishkan avliyolar
haqida so‘zlab berdi.
B) Uy to‘rida ilingan surat unga yoshligini
eslatti.
C) Suv yuziga suzub chiqgan baliqlarni ko‘rdi.
D) Biz ichki intizomga rioya qilishga majburmiz,
hurmatli hamkasblar.

5. Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni
toping.
A) maqtamoq, minnatdor
B) tassavur, inshoat
C)dorvoz, ravnag‘
D) favvora, aloxida

6. To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini toping.
A) taom, tafakkur B)maslaxat, memor
C) xavo, qa’tiy D)ishtaxa, etiqod

7. Qaysi javobda ajratib yoziladigan so‘zlar
berilgan?
A) rang//barang, xush//manzara
B) erk//talab, tele//tanlov
C) adirma//adir, Bo‘z//suv
D) taklif//qil, har//vaqt

8. Qo‘shib yoziladigan so‘zlar qatorini aniqlang.
A) olib//keldi, oy//singari
B) mehmon//do‘st, qishin//yozin
C) umum//xalq, dev//sifat
D) olov//rang, shu//vaqt

9. Qaysi gapda qo‘shimcha qo‘shilishi bilan
bog‘liq imloviy xatolik mavjud?
A) Og‘ir mehnat uni nihoyatda toliqdirib qo‘ygan edi.
B) Bu gap osmonlarda uchib yurgan yigitni birpasda yerga tushirdi.
C) Oshni hammaga bir xil qilib suzdirdi.
D) Shimoldan esgan kuchli shamol uzoq davom etgan edi.

10. Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?

CamScanner yordamida skanerlangan

A) O‘sha tog‘ga borishni biz ham orzu qilar edik.
B) Ertalab hammamizni oshka aytib ketishdi.
C) Ishdan kech qaytkan G‘ayratjonni qo‘shnisi kutib oldi.
D) Biz tong otkuncha shu yerda kutishga qaror qildik.

11. To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini toping.
A) horijiy, muvafaqiyat B)ogoh, saxovat
C) isnot, extiyot D)xashamat, davit

12. Qaysi javobda ajratib yoziladigan so‘zlar
berilgan?
A) qabul//xona, viloyatlar//aro
B) och//sariq, har//xil
C) ko‘z//oynak, kunma//kun
D) umum//milliy, shirin//so‘z

13. To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini toping.
A) horijiy, muvafaqiyat
B)xashamat, davat
C) isnot, extiyot
D)xatar, ma’rifat

14. Qaysi javobda ajratib yoziladigan so‘zlar
berilgan?
A) mehmon//xona, omma//bop
B) ham//maktab, veb//sahifa
C) hech//qachon, jiqqa//ho‘l
D) tom//orqa, suv//talab

15. Qaysi javobdagi so‘zlar to‘g‘ri yozilgan?
A) muallim, doyira B) joyiz, muommo
C) muattar, mutoala D) soat, tabiat

16. Xato yozilgan so‘zlar qatorini toping.
A) sharoit, taraqqiyot B)qanoat, madad C) muovin, maxfiy
D) xushmuomila, tushinmoq

17. Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar qatorini belgilang.
A) kam//hosil, radio//to‘lqin
B) ola//qarg‘a, tamom//bo‘l
C) otash//qalb, har//vaqt
D) ko‘cha//ko‘y, oyma//oy

18. Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar qatorini belgilang.
A) bug‘doy//rang, suv//talab
B) tom//orqa, liq//to‘la
C) pak//pakana, yilma//yil
D) cho‘l//yalpiz, har//xil

19. Imloviy jihatdan xato yozilgan so‘zlarni toping.
A) xaqiqat, hulosa B)qadrdon, omondosh
C) ta’limot, taxsimot D)munofuq, to‘rtala

20. Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar qatorini belgilang.
A) umum//jahon, xush//bichim
B) adirma//adir, yosh//yalang
C) bio//kimyo, to‘q//qizil
D) erk//talab, yangidan//yangi

21. Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni
toping.
A) tassavur, inshoat
B)dorvoz, ravnag‘
C) maxtamoq, minnatdor
D) favvora, alohida

22. Qaysi so‘zlarning yozilishida bosh harflar
imlosiga amal qilingan?
A) “O‘zbekiston qahramoni” unvoni, ToshDU
B) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

CamScanner yordamida skanerlangan

Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi
C) 8-Mart–xalqaro xotin-qizlar kuni, Hamza hakimzoda Niyoziy
D) Janubiy koreya, To‘rtko‘l tumani

23. Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar qatorini belgilang.
A) oldinma//keyin, kiyim//kechak
B) ko‘k//sulton, kundan//kunga
C) oltin//rang, tim//qora
D) qizil//ishton, ish//yoqmas

24. Imloviy jihatdan xato yozilgan so‘zlarni toping.
A) qadrdon, zomondosh
B) ta’limot, taxsimot
C)munofuq, to‘rttala
D) xaqiqat, xulosa

25. Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar qatorini
belgilang.
A) havo//rang, ish//yoqmas
B) taklif//qil, Shirmon//buloq
C) yilma//yil, o‘yin//kulgi
D) veb//sahifa, shu//yoqqa

26. Qaysi so‘zlarning yozilishida bosh harflar
imlosiga amal qilingan?
A) Adliya Vazirligi, Yozuvchilar Uyushmasi Raisi
B) Buyuk Britaniya, Shirmonbuloq qishlog‘i
qilardi.
C) 8-dekabr–konstitutsiya kuni, Sog‘liqni Saqlash Vazirligi
D) Jahon tinchlik kengashi, “Nuroniy” Jamg‘armasi

27. Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni toping.
A) munosibat, muvoffiq B)qarong‘i, soviq C) mustahkam, ma’ruza
D) paskashlik, loyixa

28. Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar qatorini belgilang.
A) yam//yashil, meva//cheva
B) ham//maktab, har//narsa
C) multi//ilova, olib//kelmoq
D) dev//qomat, har//xil

29. Qaysi javobda ajratib yoziladigan so‘zlar berilgan?
A) havo//rang, oldinma//keyin
B) olib//kel, hamma//vaqt
C) hayot//sevar, mol//mulk
D) ko‘k//sulton, orzu//umid

30. Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?
A) Boshiga ko‘p tashvishlarni ortdirib olgan ekan-da.
B) U og‘ir o‘tkan bolalik yillari haqida so‘zlab berdi.
C) U ukasini kiyintirib olgancha chiqib ketdi.
D) U o‘z do‘stlaridan ortta qolmaslikka harakat

CamScanner yordamida skanerlangan

Imlo 2

1. Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.
A) muddoa, itoot, sarosima
B) moarif, maosh, kakoa
C) saodat, foaliyat, jamoa
D) muammo, qanoat, muolaja

2. Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?
A) Keyin machittan o‘tib, to‘g‘ri yo‘lga chiqdik.
B) Manzilga yetkach, sen bilan alohida gaplashaman.
C) Oradan qancha zamonlar o‘tdi, uning nomini faxr bilan tilga olyapmiz.
D) Ular xozir, o‘smirlik chog‘idayoq, qudratli qanot paydo qilayotibdi.

3. Qaysi javobda egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda tovush o‘zgarishi bilan yoziladigan tub so‘zlar qatori berilgan?
A) bilak, terak, chelak
B) axloq, tirnoq, pishloq
C) yurak, buyruq, kerak
D) sovuq, sanoq, qaynoq

4. Qaysi gapda qo'shimcha qo'shilishi bilan bog'liq imloviy xatolik mavjud?
A) Bu gap osmonlarda uchib yurgan yigitni birpasda yerga tushirdi.
B) Shimoldan eskan kuchli shamol uzoq davom etgan edi.
C) Og'ir mehnat uni nihoyatda toliqtirib qo'ygan edi.
D) Oshni hammaga bir xil qilib suzdirdi.

5. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.
A) saxovat, layoqot, muruvvat
B) mulohaza, mushohada, musharaf
C) sadoqat, tafakkur, mashaqqat
D) muloqot, islahot, taqsimot

6. Qaysi javobdagi gapda imloviy xatolikka yo‘l qo‘yilgan?
A) Kotiba qiz tanlovda mukofotlanganlar ro‘yxatini yozib chiqdi.

CamScanner yordamida skanerlangan

B) Do'stim, tamagirlik har qanday insonni qabohat sari yetaklaydi.
C) Bugungi faravon hayotimizning qadriga yetmog'imiz kerak.
D) Bu ko'rsatuv tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

7. Quyida berilgan so'zlardan qaysilari to'g'ri yozilgan?
1) xolvafurush, 2) hordiq, 3) xarom, 4) tuhfa, 5) muxtoj, 6) chehra
A) 2, 4, 6 B) 1, 3, 5 C) 1, 2,5 D) 2, 3, 6

8. Imloviy jihatdan xato yozilgan so'zlarni toping.
A) dilozor, alomot B) xayol, huquq C) maraka, tabiyat
D) muattar, mussafo

9. Qaysi gapda qo'shimcha qo'shilishi bilan bog'liq
imloviy xatolik mavjud?
A) Bu gap osmonlarda uchub yurgan yigitni birpasda yerga tushirdi.
B) Oshni hammaga bir xil qilib suzdirdi.
C) Shimoldan esgan kuchli shamol uzoq davom etgan edi.
D) Og'ir mehnat uni nihoyatda toliqtirib qo'ygan edi.

10. Xato yozilgan so'zlar qatorini toping.
A) xukumat, kompuyuter. B) unsur, parlament C) maxalliy, duradgor D) axdnoma, millioner

11. Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar qatorini toping.
A) qiyma/ /taxta, Yangi/ / obod
B) kun/ /bo'yi, jigar//rang
C) yam/ /yashil, tanqid/ / qilmoq
D) shu/ /on, olib/ /chiqdi

12. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlarni toping.
A) muharir, madxiya B) mazkur; muhim C) umudvor, maqul
D) zaruriyat, xavas qilmoq

13. Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar qatorini toping,
A) ko'z// oynak, tok/ / qaychi
B) sotib/ /oldi, har/ /kuni
C) jon/ /kuyar, borib/ /kelmoq
D) bu/ /qadar, shifo//baxsh

14. Qo'shib yoziladigan so'zlar qatorini aniqlang.
A) to'y/ /tomosha, ishladi/ / qo'ydi
B) tim// qora, ikki/ /kilogramm
C) havo //rang, umum/ /xalq
D) aytib//yubordi, bodom// qovoq

15. Xato yozilgan so'zlar qatorini toping.
A) qadriyat, marketing B) tafsif, okeyan C) hukm, internet D) hamon, konstitutsiya

16. Chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar qatorini belgilang.
A) kam//hosil, radio//to'lqin

CamScanner yordamida skanerlangan

B) ko'cha//ko'y, oyma// oy
C) ola//qarg'a, tamom//bo'l
D) otash// qalb, har //vaqt

17. Qaysi javobda qismlari qo'shib yoziladigan so'zlar berilgan?
A) liq//to'la, Kumush/ /kon
B) qishloqma// qishloq, ommaviy / / madaniy C) omma//bop, orom//baxsh
D) yilma//yil, Olti//ariq

18. Quyidagi qaysi so‘zlarda nuqtalar o‘rniga i unlisi yoziladi?
1) sov...q; 2) sup...rmoq; 3) muh...m; 4) qut...lmoq; 5) sur...shtirmoq; 6) tush...nmoq.
A) 2, 3, 6 B) 1, 2, 4, 6
C) 3, 5 D) 1, 3, 5

19. Quyidagi qaysi so‘zlarda nuqtalar o‘rniga i unlisi yoziladi?
1) muq...m; 2) sup...rmoq; 3) tov...q; 4) bult...r; 5) tug‘...lmoq; 6) yut...q.
A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3, 5
C) 1, 5 D) 1, 2, 4, 6

20. Qaysi javobda berilgan so‘zlardagi
nuqtalar o‘rniga bo‘g‘iz undoshi yoziladi?
A) ...iyla, ...ulosa B) sa...iy, i...tiro
C) ...ushyor, ...ozirjavob D) ...ayot, ...aridor

21. Qaysi gapda imloviy xatolikka yo‘l qo‘yilgan?
A) O‘g‘il bolalar ariqlarni tozaladilar, qizlar esa hovlini supurdilar.
B) Onam qo‘y go‘shtini o‘z yog‘iga qovurib berdilar.
C) Sap-sariq qovunlarning xushbo‘y hidi anqib turardi.
D) Bugun yumushlarim ko‘payib ketdi, siz aytkan joyga bora olmadim.

22. Qaysi gapda imloviy xatolikka yo‘l qo‘yilmagan?
A) Bolalar atrofni to‘yib-to‘yib tomosha qilishdi.
B) Shunda uchchala ayolning o‘g‘illari kelib qolishibdi.
C) Vatan muqaddas tushincha sanaladi. D) Darxaqiqat, endi uning qo‘lidan osonlikcha qutulib bo‘lmaydi.

23. Quyidagi berilgan so‘zlardan qaysilari
to‘g‘ri yozilgan?
1) chehra; 2) saxna; 3) xovuz; 4) tuhfa; 5) muxtoj; 6) suhbat.
A) 2, 3, 5 B) 1, 2, 5 C) 1, 3, 6 D) 1, 4, 6

24. Quyidagi gapda imloviy jihatdan xato
yozilgan so‘zlar soni nechta?
G‘azapdan o‘zingni asra, chunki u tufayli inson
ishlarini, ezgu maqsatlarini unutadi.
A) 2 ta B) 1 ta C) 3 ta D) 4 ta

CamScanner yordamida skanerlangan